

УДК: 338.48-44:332.1

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

mohinur.kurbanova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2292-7937

XALQARO TAJRIBALARNI MAHALLIYLASHTIRISH ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida xalqaro yetakchi tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitida mahalliyashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliy tajribalar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqilib, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Iroq va boshqa mamlakatlarning ilg'or amaliyotlari - ziyoratchilar oqimini boshqarish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish kabi yo'nalishlarda o'rganilgan. Olingan natijalar O'zbekistonda ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish, xalqaro talab va standartlarga moslashtirish hamda yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, xalqaro tajriba, mahalliyashtirish, barqaror rivojlanish, infratuzilma, raqamli texnologiyalar.

Kirish


Ko'plab rivojlanayotgan bozorlar o'zlarining sayyohlik takliflarini diversifikatsiya qilishlari bilan, e'tiqodga asoslangan turizm butun dunyo bo'ylab bir qator bozorlar uchun asosiy segmentga aylanadi. Ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashdan tashqari, diniy turizm butun dunyo bo'ylab logistika infratuzilmasini yaxshilash, obidalarni himoya qilish, ko'proq rekreatsion takliflarga investitsiya kiritishga yordam beradi. Diniy sayyohlarning katta oqimini boshdan kechirayotgan hududlarda yangi strategiyalar va infratuzilma loyihalari haddan tashqari turizmning oldini olishga yordam beradi, shu bilan birga o'sish imkoniyatini beradi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili taxminan 330 million kishi diniy sabablarga ko'ra sayohat qiladi¹, bu ma'naviy yoki muqaddas qadriyatlarga ega mamlakatlar uchun muhim bozorni tashkil qiladi. Diniy turizmga asoslangan iqtisodiyotga ega davlatlarda ziyoratgohlarga diniy sayohatlar yiliga kamida 8 milliard dollar daromad olib keladi, minglab odamlarni ish bilan ta'minlaydi.

Diniy turizm bozorining hajmi 2024-yilda 230,6 milliard dollarni tashkil etdi va 2034-yilga kelib 893,1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, ya'ni, 14,5 foizga oshishi kutilmoqda².

¹<https://www.futuremarketinsights.com/reports/jordan-faith-based-tourism-market#:~:text=According%20to%20the%20World%20Tourism,Madaba%2C%20Pella%2C%20and%20Makower> - Future Market Insights Inc. tadqiqot markazi

²[https://www.cognitivemarketresearch.com/religious-tourism-market-report#:~:text=2025%20\(Global%20Edition\)-,The%20global%20Religious%20Tourism%20market%20size%20is%20USD%201354845.6%20million,7.00%25%20from%202024%20to%202031](https://www.cognitivemarketresearch.com/religious-tourism-market-report#:~:text=2025%20(Global%20Edition)-,The%20global%20Religious%20Tourism%20market%20size%20is%20USD%201354845.6%20million,7.00%25%20from%202024%20to%202031). Religious Tourism Market Report 2025 (Global Edition). 8th Edition. November 2024.



1-rasm. Global musulmon sayohatchilar tashrif ko'rsatkichlari¹

Dunyo musulmonlari aholisi soni 2 milliarddan ortiq kishini tashkil etadi². 2023-yilda xalqaro musulmon sayyohlar soni 145 million nafarni tashkil qildi. 2028-yilga kelib ularning soni 230 million, kutilajak daromad esa 225 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilingan³.

Adabiyotlar sharhi

Qadimgi davrdan hozirgi kungacha musulmon ziyoratchilar orasida Makka, Madina, Quddus, Bag'dod, Damashq, Misr, Karbalo, Najaf, Buxoro muqaddas ziyorat maskanlari sanaladi. Ziyoratchilar bu joylarga turli sabablarga ko'ra tashrif buyurishadi, jumladan, payg'ambarning shafosatiga erishish, Alloh rizoligiga erishish, duo qilish, muayyan savollariga javob topish, mushkulotlarini yengillatish, shifo topish, farzandli bo'lish umidida, ilm talabida, tasalli topish, ish yoki o'qishda muvaffaqiyat qozonish, nazrni bajarish, so'fiylarning ibodatlar va zikrlarida qatnashish, payg'ambarlarning tavalludini yoki o'lgan kunini nishonlash maqsadida payg'ambar, uning ahli oilasi, sahobalar, imomlar va valiy qabrlari ziyorat qilinadi.

Umuman olganda, musulmonlar uchun hadislarida zikr qilingan barcha payg'ambarlar, sahobai ikromlar, shahidlar, valiy qabrlari Alloh bilan insonlar o'rtasida duolar ijobat bo'lishi uchun vosita sifatida xizmat qilib, ularni ziyorati mustahab amaldir, bu e'tiqod esa Islomda "vasila"⁴ deyiladi.

Masjid al-Haramda joylashgan Ka'ba musulmonlar uchun eng muqaddas maskan sanaladi. Har yili 15 milliondan ortiq hojilar tomonidan Haj va Umra ziyoratlari amalga oshiriladi. Masjid al-Haramdagi Maqomi Ibrohim, Hijri Ismoil, Qora Tosh, Zamzam bulog'i, Arafot tog'i, Mina, Muzdalifa, Safo va Marva tepaliklari, Hiro g'ori muqaddas va ziyorat qilinishi kerak bo'lgan joylardir. Musulmonlar uchun keying muqaddas maskan Madinadagi Masjid an-Nabaviydir. Bu yer Muhammad alayhissalomning boqiy maskanlari bo'lib, Rashidun xalifalar Abu Bakr va Umar r.a.larning qabrlari ham shu yerda joylashgan. Shuningdek, Madina shahrida Baqi qabristoni bo'lib, Ahl al-Bayt, Usmon r.a., sahobalarning qabrlari ham ziyorat etiladi.

¹ Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

² <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/muslim-population-by-country> - Dunyo aholisi tahlili

³ Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. 2024

⁴ Jo'rayeva S. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi // Monografiya. Toshkent. "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi". 2021. -224 b.

1-jadval

Ziyorat kategoriyasiga muvofiq musulmonlar ziyorat qiladigan muqaddas maskanlari¹

Ziyorat kategoriyasi amali	Ziyoratgoh nomi	Ziyorat qilinishidan maqsad	Joylashgan joyi
Farz ziyorat amali	Masjid al-Haram va u yerdagi Ka'ba, Arafot tog'i, Mina va Muzdalifa	Ka'ba musulmonlar uchun eng muqaddas maskan sanaladi. Islom dinida farz bo'lgan beshinchi amal Haj ziyorati ado etiladi	Makka shahri, Saudiya Arabistoni
Sunnat ziyorat amali	Masjid an-Nabaviy, Quba va Al-Qiblatayn masjidlari	“Kichik Haj” ziyorati, sunnatga muvofiq Muhammad payg'ambar izidan Umra ziyorati amalga oshiriladi	Madina shahri, Saudiya Arabistoni
	Masjid al-Aqso	Musulmonlarning Ka'badan oldingi birinchi qiblasi, Me'roj kechasida Muhammad alayhissalom barcha payg'ambarlar bilan birga shu yerda namoz o'qiganlar	Quddus, Isroil
	Umaviylar masjidi	Karbalo jangidan so'ng Ahl al-Bayt qo'nim topgan maskan.	Damashq, Suriya
	Ibrohim masjidi	Dunyodagi eng qadimiy muqaddas bino bo'lib, hanuzgacha foydalanilmoqda. Unda Ibrohim, Yusuf, Ishoq, Yoqub alayhissalomlar va ularning ayollari qabrlari bor.	Xevron, Falastin
	Imom Ali ziyoratgohi	Rashidun xalifaligining so'nggi imomi, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning amakivachchasi va kuyovi, 12 imomning birinchisi qabri joylashgan	Najaf, Iroq
	Imom Husayn va Abbos ibn Ali ziyoratgohi	12 imomning uchinchi, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning nevarasi Husayn ibn Ali hamda uni tutingan ukasi Abbosning qabri joylashgan. Arbain ziyoratining asosiy nuqtasi	Karbalo, Iroq
	Imom Reza ziyoratgohi	12 imomning sakkizinchi Ali ibn Musa qabri joylashgan	Mashhad, Eron
	Uqba masjidi (Qayruvonning Masjidi Kaloni)	Ba'zi musulmonlar uchun Makka, Madina va Quddusdan keyingi muqaddas maskan deb e'tirof etilib, mahalliy an'analarga ko'ra masjidni yetti marotaba ziyorat qilish Makkani	Qayruvon, Tunis

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

		bir marta ziyorat qilganlikka tenglashtiriladi.	
	Abdulqodir G'iloniy maqbarasi (G'us Mozori)	Qodiriyya so'fiylik tariqati asoschisi Abdulqodir G'iloniyga bag'ishlangan majmua.	Bag'dod, Iroq
	Sinay tog'i (Muso alayhissalom tog'i)	Alloh Muso alayhissalom bilan bevosita gaplashgan joy sifatida bilinadi.	Sinay yarim oroli, Misr
	Imom al-Buxoriy memorial kompleksi	Dovud alayhissalom qadamjolari, Muhammad alayhissalomning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning qabrlari, sahih hadislar muhaddisi Imom Buxoriy qabri ziyorat qilinadi.	Samarqand, O'zbekiston
	Payg'ambarlar qadamjolari, "Yetti Pir" ziyoratgohlari va valiy qabri	Ayyub, Dovud va Xizr alayhissalom qadamjolari, Naqshbandiy So'fiy tariqatining Oltin halqasiga kiritilgan avliyolarning, o'z davrida sohibkaromat bo'lgan valiyning qabrlari ziyorat qilinadi.	Buxoro, O'zbekiston
	Moviy masjid (Hazrat Ali maqbarasi)	To'rtinchi Rashidun xalifa Hazrat Alining qabri shu yerda joylashgan deb rivoyat qilinadi.	Mozori Sharif, Afg'oniston
	Rumiy qabri	Buyuk tasavvuf shoiri Jaloliddin Rumiyni qabri ziyorat qilinadi.	Konya, Turkiya
	"Wali songo" ("To'qqiz avliyo" ziyoratgohi)	Indoneziyada Islomning keng tarqalishiga sababchi bo'lgan to'qqizta valiy ziyorati.	Yava oroli, Indoneziya

Turli din vakillari uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ziyoratchilar orasida mashhur bo'lgan ko'plab yo'nalishlar mavjud. Har qanday turizm turi kabi ziyorat turizmi ham katta iqtisodiy samaraga ega. Ba'zi ziyorat destinatsiyalari va hududlar daromad olish uchun butunlay turizmning ushbu turiga tayanadilar. Bu, o'z navbatida, atrofdagi hududlar uchun ham manfaatli bo'ladi. Mehmonxonalar va restoranlarda ko'proq joylar band bo'ladi, mahalliy do'konlar mijozlar bilan to'ladi, gid-tarjimonlar, usta hunarmandlar, fotograf va shu kabi boshqa kasb egalari ham ish bilan band bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ziyorat turizmining ilmiy asoslarini tahlil qilish hamda xalqaro tajribani milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Ilmiy izlanishlar jarayonida bir nechta metod va uslublar qo'llanildi. Jumladan, adabiyotlar sharhi va hujjatlar tahlili usuli yordamida xalqaro tashkilotlar (UNWTO, Mastercard-CrescentRating, OIC) hisobotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar va statistik manbalar o'rganildi. Bu orqali ziyorat turizmining nazariy asoslari, rivojlanish tendensiyalari va mavjud ilmiy yondashuvlar aniqlab olindi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli qo'llanib, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Indoneziya, Eron, Iroq, Misr va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalari O'zbekiston sharoitiga taqqoslandi. Bu esa milliy turizm siyosati uchun samarali model va amaliyotlarni ajratib olish imkonini berdi. Statistik tahlildan foydalanilib esa global va mintaqaviy miqyosda ziyorat turizmi bozorining hajmi, ziyoratchilar oqimi, o'sish sur'atlari va prognoz ko'rsatkichlari raqamlar asosida baholandi.

Tahlil va natijalar

Xalqaro Halol turizmni baholash tashkiloti - Mastercard-CrescentRating ma'lumotlariga ko'ra, musulmon sayyohlar tashrifi bo'yicha Osiyo yetakchi o'rinda turadi. 2024-yilda Islom Hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida musulmonlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Indoneziya va Malayziya davlatlari bir necha yillardan beri birinchilikni egallab kelmoqda. Saudiya Arabistoni, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari keyingi o'rinlarda turadi. O'zbekiston esa bu ro'yxatda 14-o'rinni egalladi. Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar ichida esa Singapur, Birlashgan Qirollik, Tayvan, Gonkong va Tailand top 5 talikdan o'rin olgan. 2023-yilda dunyoda xalqaro turistik tashriflar 1,304 million kishini tashkil etgan bo'lsa, shularning 145 million nafari musulmon sayohatchilar ulushiga to'g'ri keladi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi boshqa davlatlar uchta Ibrohim dini uchun tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan joylarni tiklash va saqlash bilan shug'ullanadi, bu o'z navbatida xalqaro sayyohlar kelishini ko'paytirishga yordam beradi. Misrning Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi 2020-yilda "Buyuk Transfiguratsiya" loyihasini ishga tushirdi. Loyihaning asosiy maqsadi Aleksandriya va Sinay shaharlarida yashash sharoitini, turistik xizmatlarni, yo'llarni yaxshilash, qor ko'chkilari va suv toshqinlarining oldini olishga qaratilgan rejalarni amalga oshirish orqali diniy, ekologik va tibbiy turizm bo'yicha yetakchi destinatsiyaga aylantirish hisoblanadi. Yurtimizda ham xuddi shunday mezo darajadagi loyihalarni amalga oshirish mavjud turistik potensialni jahon hamjamiyatiga ko'rsatib, ziyorat turizmini mavsumga bog'liq bo'lmagan holda rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Diniy bayramlarning global markazi bo'lgan Braziliya har yili 200 dan ortiq diniy tadbirlarga mezbonlik qiladi, jumladan, Para shtatining Belem shahridagi Sirio de Nazare tantanali yurish marosimida 2022-yilda 2,5 million kishi qatnashgan. 2019-yilda diniy turizm Braziliya iqtisodiyotiga taxminan 15 milliard dollar daromad keltirgan. O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya ta'limotlarini targ'ib qilish maqsadidagi tariqat davomchilari, diniy ulamolar, tadqiqotchilar hamkorligida ilmiy diniy tadbirlar tashkil etilsa mahalliy va xalqaro turistik oqimni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Indoneziyalik musulmonlarni ularning "wali songo" avliyolarini Najmiddin Kubroga bog'lab Xorazmda tadbir uyushtirish mumkin. Yana bir misol qilib diniy konferensiyalar uyushtirishni aytish mumkin. Masalan, Dublin Texnologiya Universitetining Scopus bazasida indekslangan Q1 kvartilli International Journal of Religious tourism and Pilgrimage (IJRTP) jurnali har yili Yevropa davlatlaridan birida va Osiyo-Okeaniya mintaqasida International Asia-Pacific Religious tourism and Pilgrimage (APIRTP) konferensiyasini o'tkazadi. Bu konferensiyalarga 20 dan ortiq davlat vakillari qiziqish bildirib, unga ishtirok etish maqsadida sayohat qilishadi. Mazkur jurnalning konferensiyasini Buyuk Ipak yo'li mintaqasi bo'ylab ham yangicha nom bilan – "Great Silk Road Religious tourism and Pilgrimage Conference" deb O'zbekistonda tashkil etilsa, o'z navbatida nafaqat musulmon ziyorat turizmi, balki, ilmiy va diniy turizm rivojiga ham hissa qo'shadi.

Osiyo mintaqasi aholisining kelib chiqishi, tarixi, madaniyati bir-biriga yaqinligini inobatga olib, ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy segmenti deb qarash to'g'ri sanaladi. 2021-yilda Iordaniya Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi Nebo tog'idan Iordan vodiysigacha bo'lgan hududda sarguzasht, madaniy, tibbiy va diniy turizmni rivojlantirishga imkon beruvchi Xristian "ziyosat turizm yo'li"ni tashkil etish loyihasi ustida ish boshlagan. Bugunga kelib kishi boshiga 3000 yevroga baholanadigan 10 kunlik Iordaniya, Isroil, Falastin davlatlari orqali o'tadigan "Quddus yo'li" degan turlar taklif etilmoqda.

Saudiya Arabistoniga esa xalqaro tashriflar hozirda Haj va Umra ziyoratlarida qatnashayotgan shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. Hojilarning ziyoratini yengillatish, ularga imkoniyat va xalqaro darajadagi qulayliklar yaratib berish maqsadida 2019-yilda "Pilgrim Experience dasturi" yaratildi. Xuddi shu yilda tashkil etilgan "Makka yo'nalishi" tashabbusi Pokiston, Malayziya, Indoneziya, Marokash, Bangladesh, Turkiya va Kot-d'Ivuardan kelgan hojilarga Saudiya Arabistoniga yetib kelganidan so'ng, ularning yuklari to'g'ridan-to'g'ri Makka

va Madinadagi turar joylariga yetkazish, aeroportda uzoq navbatda turmaslik, ularning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mehmonlar taassurotlarini yaxshilash va turistik oqimni barqarorlashtirish ishlariga Qirol Abdulaziz xalqaro aeroportini qayta qurish kabi 35 milliard dollarlik qurilish loyihalari, maxsus Haj terminalini tashkil etish loyihalari kiradi. 16 milliard dollarlik loyiha hajmiga ega Makka metrosi esa Makkadagi diniy ahamiyatga ega joylarni bog'lash uchun to'rtta yangi metro liniyasini ochishi rejalashtirilgan.

Qirollik yil davomida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan Umra ziyoratini targ'ib qilish ustida ishlamoqda, bu esa odamlarning haddan tashqari ko'pligi va boshqa muhim muammolarni yumshatish uchun harakat qilmoqda. Saudiya Arabistoni Turizm va tadqiqot markazining hisob-kitoblariga ko'ra, 2005-yildan buyon xorijliklarning Umra tashrifi uch barobar ko'paygan. 2022-yil o'rtalaridan boshlab mamlakatda yangi joriy etilgan elektron viza dasturi orqali turistik vizani olgan mehmonlarga Umra ziyoratini amalga oshirishga ruxsat berildi.

Kelayotgan barcha daromadlar ziyorat turizm info- va infratuzilmasini rivojlantirish evaziga ham bo'layotganligini inobatga olib texnologiya diniy turizm rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi, ham unga ta'sir qiladi, deb aytish mumkin. Global sayyohlik distributorlik platformasi TBO.com tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Saudiya Arabistoni diniy sayohatlarga asoslangan Zamzam.com onlayn sayohat agentligi platformasini yaratdi. Kompaniya Umra sayohati xizmatlariga ixtisoslashib, jumladan, vizalar, reyslar va diqqatga sazovor joylarga turistik paketlar kabi takliflari mavjud.

2022-yil sentabr oyida Saudiya Arabistonining Haj va Umra vazirligi "Vision 2030" dasturi doirasida Makka va Madinaga diniy maqsadlarda ziyoratlarni rejalashtirishni osonlashtirish uchun rasmiy raqamli platforma - Nusukni ishga tushirdi. Shaharda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va ziyoratchilar bilan hamjihatlikni ta'minlash maqsadida 2024-yilda Masjid al-Haram va Masjid an-Nabaviyda ziyoratchilarga xizmat ko'rsatadigan aqlli diniy robotlar ishga tushirilgan.

Qirollik "Vision 2030" dasturi doirasida ziyoratchilar sonini yanada oshirish maqsadida 2021-yilda "Umra +" loyahasini yo'lga qo'yib, 50 dan ortiq davlatlar bilan Umra ziyoratini amalga oshirishni rejalashtirganlar uchun maxsus ibodat, turizm, dam olish va ma'naviy lazzatlanishni o'zida mujassam etadigan turlarni tashkil etishda hamkorlik qilinadi. Bizning mamlakatda mustaqil tarzda ziyorat qiluvchi ziyoratchilarning ko'pligini inobatga olib, ular uchun sayohatining boshlanishi va davomida qo'llaniladigan mobil ilovalar, ziyoratchi identifikatsiya kartasi ishlab chiqilsa, halol turizm infratuzilmasi yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ziyorat qilinadigan maskanlar orasida Iroq ham yetakchi davlatlar qatorida turadi. Har yili Islom taqvimiga asosan Safar oyining yigirmanchi kuni Arbain (qirq) deb nomlanadi, bu Muharram oyining o'ninchi kuni bo'lgan Ashuro kunidan keyingi qirqinchi kunga to'g'ri keladi. Ashuro kuni shialarda Muhammad alayhissalomning nevarasi, uchinchi shia imomi Husayn ibn Alining vafoti bilan bog'lanib, xotirlanish, motam kuni sifatida nishonlanadi. Qirq soni Islomda muqaddas raqam bo'lib, Arbain ziyorati shia imomlari tomonidan ommalashtirilgan dastlabki ziyoratlardan sanaladi. Arbain ziyoratchilari "Mukib" – "Hussaynning azadorlari" deb ataladi. Barcha ziyoratchilar qora motam kiyimini kiyib safarga yo'l oladi. Eng mashhur yo'l Najafdan Karbalogacha, chunki ko'plab ziyoratchilar avval Najafga borib birinchi imom Ali qabrini ziyorat qiladilar, so'ngra u yerdan taxminan 80 kilometr uzoqlikdagi Karbaloga piyoda yo'l olishadi, safar uch kun davom etadi.

Mukiblar Arbainda yurish qilmasdan shunchaki Karbaloga borib Imom Husaynni ziyorat qilish mumkin, lekin insonlar doimiy qulay hayot tarzidan chiqishni ma'qul deb bilishadi. Asosiy maqsad Karbalodagi Imom Husayn masjidigacha piyoda yetib borish, u kishining shafolatlariga erishish, inson hayotda muammo, urush, to'siqlarga duch kelganda ham yurishdan, kurashishdan to'xtamasligi kerakligini ifodalaydi. Bu yo'l kishi o'zini tarbiya qiladi, o'z ustida xulosalar chiqaradi, qalb sayohat qiladi deb ishoniladi.

Bu yurish yillar davomida siyosiy ahamiyatga molikligi sababli ko'p ta'qiqlarga uchragan, biroq, hozirda barcha din vakillari ham bemalol ziyoratda ishtirok etishlari mumkin. Ba'zi shialar Arbain ziyoratini Haj ziyoratidanda ustun qo'yishadi.

Shaharda infratuzilma deyarli rivojlanmagan, lekin, imom Husaynning tarafdorlari bo'lgan samimiy, saxiy mahalliy aholi barcha davlatlardan kelgan ziyoratchilarning safarini yengil qilib bepul xizmatlar taqdim qiladi. Iroqliklarning taqvosi shu darajada kuchliki, ular imom Husayn uchun bor budlarini qurbon qilishga ham tayyorlar. Mahalliy aholining asosiy maqsadi Imom Husaynni ziyorat qiluvchilarni xursand qilish orqali u kishining duolarini olish. Yo'l davomida ko'ngillilar ziyoratchilarni bepul ovqat va xizmatlar bilan ta'minlaydi. Hattoki, tayyorlagan taomlaridan tatib ko'rishni, uylarida tunab qolishni iltimos qilishadi.

Yo'l davomida mukiblar duch kelishi mumkin bo'lgan barcha muammolarni bartaraf etish uchun turli xizmatlarni ham bepul taklif etishadi. Jumladan, kirlarni tozalash xizmati, telefon quvvatlantirish, shunchaki o'tirib dam olish, kitob o'qish uchun joylar, salqin bo'lishingiz uchun insonlar suv sepib turishadi, tibbiyot punktlari, bolalar va nogironlar aravachalarini tuzatish uchun ustaxonalar, beto'xtov ravishda tandirlarda nonlar yopib berishadi, agar narsa yoki sumkangiz yirtilgan bo'lsa beminnat tikuvchilar tikib berishadi, vaqtinchalik hojatxonalar, tahoratxonalar, mehmonxonalar xizmatining barchasi bepul beriladi.

Bozor va do'konlarda Karbaloning maxsus taomlari va shirinliklari tayyorlab sotiladi. Ziyoratgohlarga kirish uchun ayollar va erkaklarga alohida kirish joylari tayyorlangan. Gid-hamrohlar ziyoratgohni tanishtirish bilan birga Imom Husaynni she'r orqali madh etishadi. Ziyoratgoh atrofida Imom Husaynning hidlarini beruvchi mushk tayyorlab sotiladi. Arbain ishtirokchilari ambassador bo'lishlari, ya'ni, boshqalarga ham bu yerni ziyorat qilishni targ'ib etishlari, samimiylik, g'amxo'rlik to'g'risida aytib berishlari kerak bo'ladi.

Arbain ziyoratini tashkil etish uchun Iroq davlatining budgetidan 33 million dollardan ortiq mablag' ajratilib, mustaqil ziyoratchilarning safari deyarli bepul tashkil etiladi, turistik agentlik orqali sayohat qiluvchilarga kunlik o'rtacha 80-100 AQSh dollaridan to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda ham mintaqa bilan bog'liq barcha qadriyatlarni, shaxs, ilm, musiqa, o'yin, taom kabilarni ko'rsatib bera olish, ziyoratgohlarga tashkil etiladigan virtual sayohatlar, ziyoratgohlarning GAT (geoaxborot tizimlari) xaritalari, ziyoratgohlar tarixi, buyuk shaxslar haqidagi filmlar namoyishi, teatrlashtirilgan tomoshalar, ziyorat turizmi bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish sayyohlarni ushbu hududga yanada ko'proq jalb qiladi.

Yevropada islomiy obidalar kam bo'lsada, ular musulmon sayyohlarni Halol turizm tadbirlari, "Umra+" daturlari orqali jalb etmoqda. Hududda Transmilliy madaniy yo'llar orqali turizmni rivojlantirish eng asosiy strategiya sanaladi. Avliyo Jeyms yo'li mintaqada eng mashhur ziyorat turizm yo'nalishi hisoblanib, 2023-yilda 440 mingdan ortiq ziyoratchilar 300 million yevro miqdorida daromad keltirgan.

Camino de Santiago - Yevropa bo'ylab cho'zilgan va Ispaniyaning shimoli-g'arbiy qismidagi Santyago-de-Kompostela shahridagi Avliyo Jeyms (ispancha Santyago) qabrida birlashadigan qadimiy ziyoratchilarning safar yo'lidir. Avliyo Jeymsning 7 ta: Fransuz yo'li, Portugal yo'li, Shimoliy yo'l, Asl (eng qadimgi) yo'l, Kumush yo'l, Ingliz yo'li va Camino Finisterre asosiy yo'nalishlari mavjud. Camino de Santiagoda ziyoratchilarning ikki turi farqlanadi, ya'ni, ruhiy sayohatga chiqadigan xristianlar va shunchaki Avliyo Jeyms sayohatini boshdan kechirishni xohlaydigan ziyoratchilarga bo'linadi. Ziyoratchilar asosan piyoda yoki velosipedda va ko'pincha yaqin atrofdagi shaharlardan kelishadi, bu esa Santyagoga bir necha kunlik piyoda borishni talab qiladi.

Camino de Santiagoda 25-iyul Avliyo Jeyms bayrami yakshanba kuniga to'g'ri keladigan yil doim Muqaddas yil yoki Ano Xakobeo deb ataladi. Bu faqat bir necha yilda bir marotaba sodir bo'ladi, kabisa yillari tufayli Muqaddas yillar bir asrda atigi 14 marta, har 6, 5, 6, 11 yilda bir marta kelib, oxirgi Ano Xakobeo 2021-yilda bo'lgan, keyingi Muqaddas yil 2027-yilga to'g'ri kelyapti.

Har bir Muqaddas Yilda soborning sharqiy tomonida "Muqaddas eshik" deb nomlangan maxsus kirish joyi ochiladi. XII asrdan boshlab Muqaddas yilda ziyoratgohga tashrif buyurgan ziyoratchilarga Plenar Indulgensiya berilmoqda.

Ilg'or xorij davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, barcha din vakillarining e'tiqodidan kelib chiqib muqaddas maskanlarni ziyorat qilishidan asosiy maqsad gunohlaridan poklanish va ma'naviy ozuqa olish bo'lib hisoblanar ekan. Bu o'z navbatida hudud iqtisodiyotidagi ziyorat turizmidan keladigan tushumni oshishiga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi ham aniqlandi.

2-jadval

Diniy ziyorat yo'nalishlarining xalqaro tajribasi tahlili¹

Tahlillarga asosan, Camino de Santiago yo'nalishida marshrut davomiyligiga qarab

T/r	Ziyorat yo'nalishi nomi	Ziyoratning aloqadorligi	Masofa	Davomiyligi	Davlat	Ziyorat qilish vositasi	Ziyoratchilarning yillik qamrov darajasi	Ziyoratchilarning 1 kunlik o'rtacha xarajati
1	Karbalo ziyorati	Imom Husayn va uning safdoshlarini	80-100 km	3-14 kun	Iroq	Piyoda, transportda	34 million	\$80-100
2	Camino de Santiago	Iso alayhissalomning 1-havoriysi Avliyo Yakub	315-100 km	5-40 kun	Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Germaniya	Piyoda, ot yoki velosipedda	350 ming	\$27-53
3	Char Dham	Hind mifologiyasidagi 4 ma'buda	1600-1800 km	10-14 kun	Hindiston	Yengil avtomobilda	5 million	\$23-55
4	Wali Songo	Islom dinining 9 So'fiy avliyolari	20-1000 km	7-8 kun	Indoneziya	Piyoda yoki transportda	1,5 million	\$30-75
5	So'fiy yo'li	Tasavvuf olimi va shoir Jaloliddin Rumi	801 km	14-40 kun	Turkiya	Piyoda yoki velosipedda	2 million	\$40-80

turpaketlar narxi 1650-7200 AQSh dollarigacha belgilanib, agar sayyoh safarini mustaqil ravishda tashkil etadigan bo'lsa, unda har bir ziyoratchi bir kunda o'rtacha 27-53 dollar atrofida hudud iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Hindistonning shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy hududlarini bog'lovchi Char Dham ziyorat yo'li to'rtta ma'budaning ziyoratgohini ziyorat qilishdan iborat bo'lib, odatda shaxsiy avtomobilda safarga chiqiladi. Mustaqil safarga o'tlanganda 10 kunlik ziyorat 516 AQSh dollarini, turistik paketlar esa 330-520 AQSh dollari atrofida tashkil etiladi.

Indoneziyadagi Wali-Songo ziyorat yo'li Sharqiy Yava orolidan boshlanib, orolning markaziy qismi orqali G'arbiy qismigacha cho'ziladi. Ziyorat turizm marshruti Indoneziyada Islom dinini yoyishda muhim rol o'ynagan to'qqiz avliyo ziyoratgohlarini qamrab olib, ziyoratda odatda shaxsiy avtomobil, yoki avtobus, yoki temir yo'ldan foydalaniladi.

Turkiyada Istanbuldan Konyagacha cho'zilgan So'fiy yo'li tashkil qilinib, Jaloliddin Rumi va boshqa so'fiylarning qabrlari ziyoratidan tashkil topib, piyoda ziyorat qilish qo'llab-quvvatlaniladi va ziyoratchilar bir kunda o'rtacha 40-80 AQSh dollari atrofida xarajat qilishadi.

Bunday amaliyotni O'zbekiston ziyoratgohlari uchun ham qo'llash, Islom, nasroniy, yahudiy, budda dini vakillari uchun alohida turistik marshrutlarni tashkil etish, masalan, sunniy musulmonlar uchun so'fiylarning yo'li, shialar uchun imomlar ziyorati, hadis ilmiga qiziquvchilar uchun muhaddislar yo'li, fiqh ilmi vakillari uchun faqihlar ziyorati, hunarmandlar uchun ularning avliyolariga ziyorat marshrutlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-sonli "2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasida belgilangan "2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish dasturi"ning 6-bandi ijrosining mantiqiy davomi sifatida amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-338-sonli "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 1-bandi ijrosini ta'minlashda xizmat qiladi.

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

ziyosat turlarini tashkil etishda individual emas, balki, tur operatorlarga murojaat qilish. Chunki, ziyoratchilar asosan xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yishadi. Bundan tashqari, turoperatorlik tashkilotlari orqali borganda ular ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi. Shu sababli, ziyorat turizmga ixtisoslashgan, malakali mutaxassislariga ega turoperatorlik tashkilotlari faoliyatini kengroq yo'lga qo'yish;

potensial ziyoratchilar orasida destinatsiyaga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularning tashrifini ta'minlash maqsadida diniy ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar bo'ylab virtual turlarni tashkil etish;

obunachilari ko'p bo'lgan bloggerlarni destinatsiyaga iloji boricha bepul va ko'proq jalb etish, hudud va har bir turoperatorlik tashkilotining veb-sahifasi, ijtimoiy tarmoqlarida ma'lumotlarni doimiy yangilash orqali Internetda katta hajmdagi targ'ibot ishlarini olib borish;

imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun ham ziyoratlarni tashkil etish, ular uchun qulay infratuzilmani yaratish;

ziyoratchilar asosan autentiklikni ma'qul ko'rishadi, ya'ni, ma'lum dinlar va ziyoratgohlar bilan, mahalliy aholi bilan bog'liq haqqoniy, azaldan saqlanib qolgan ma'naviy va madaniy qadriyatlarini his etish, urf-odatlarida shaxsan ishtirok etish imkoniyatini beradigan marshrutlar sonini oshirish.

Ushbu keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizda turizm sohasi orqali kam xarajat qilib yuqori daromad olish imkonini beradigan tarmoq bu ziyorat turizmi ekanligini isbotini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abramson, D. M., & Karimov, E. E. (2007). 20. Sacred Sites, Profane Ideologies: Religious Pilgrimage and the Uzbek State. *Everyday life in Central Asia: Past and present*, 319.
2. Bhardwaj, S. (1998). Non-hajj pilgrimage in Islam: A neglected dimension of religious circulation. *Journal of cultural geography*, 17(2), 69-87.
3. Bilim, Y., Bıskın, F., & Kaynak, İ. H. (2019). Marketing approaches and problems of Islamic destinations. In *Islamic tourism: management of travel destinations* (pp. 38-54). Wallingford UK: CAB International.
4. Dunyo aholisi tahlili. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/muslim-population-by-country>
5. Durán-Sánchez, A., Álvarez-García, J., del Río-Rama, M. D. L. C., & Oliveira, C. (2018). Religious tourism and pilgrimage: Bibliometric overview. *Religions*, 9(9), 249.
6. Eade, J. (1992). Pilgrimage and tourism at Lourdes, France. *Annals of Tourism Research*, 19(1), 18-32.
7. Eliade, M., & Partin, H. B. (1965). Crisis and renewal in history of religions. *History of Religions*, 5(1), 1-17.
8. Future Market Insights Inc. tadqiqot markazi. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/jordan-faith-based-tourism-market#:~:text=According%20to%20the%20World%20Tourism,Madaba%2C%20Pella%2C%20and%20Makower>
9. Jo'rayeva, S. (2021). Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. Monografiya. Toshkent. "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi". -224 b.
10. MacCannell D. Staged authenticity: Arrangements of social space in tourist settings //American journal of Sociology. – 1973. – T. 79. – №. 3. – C. 589-603.
11. Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. 2024
12. Mujtaba, U. (2019). Constructs of foot pilgrimage in Islam: the case of Arbaeen Ziyara. In *Islamic tourism: management of travel destinations* (pp. 214-227). Wallingford UK: cab International.

13. Rahimi, B., & Eshaghi, P. (Eds.). (2019). *Muslim pilgrimage in the modern world*. UNC Press Books.
14. Religious Tourism Market Report 2025 (Global Edition). 8th Edition. [https://www.cognitivemarketresearch.com/religious-tourism-market-report#:~:text=2025%20\(Global%20Edition\)-,The%20global%20Religious%20Tourism%20market%20size%20is%20USD%201354845.6%20million,7.00%25%20from%202024%20to%202031](https://www.cognitivemarketresearch.com/religious-tourism-market-report#:~:text=2025%20(Global%20Edition)-,The%20global%20Religious%20Tourism%20market%20size%20is%20USD%201354845.6%20million,7.00%25%20from%202024%20to%202031)